YUSUFJON QIZIQ SHAKARJONOV HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATIGA CHIZGILAR

Tojimamatova Odinaxon Shavkatjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Qabul qilindi: 02.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 03.10.2025
Tasdiqlandi: 04.10.2025

Kalit so‘zlar:
askiya, qiziqchilik, san’at, ijod, pedagogika, ustoz, xalq og‘zaki ijodi, hazil mutoyiba.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yusufjon Qiziq Shakarjonov hayoti va ijodiy faoliyati tahlil qilinadi. O‘zbek xalqi askiya va qiziqchiligi bugungi kunda san’at darajasiga ko‘tarila olgan janrlardan biridir. Yusufjon qiziq Shakarjonov Marg‘ilon shahrining Yoqubbek guzarida istiqomat qiluvchi Shokirjon kulol bilan chevar Tojibibi oilasida dunyoga keladi. U kishi xalq o‘rtasida so‘zga chechanligi, o‘zining shirin suhbati bilan dong taratishi natijasida ismi Shakarjonga aylanib ketgan.

Kulgu kirgan har bir xonadondan g‘am-tashvish, urish-janjal, g‘iybat-bo‘hton, dardu alam qochadi. Chehralar yorishib, xushmuomulalik va ahillik kuchayadi. Hatto, ba’zi xasta kishilarning og‘riqlari qolib, shifo topadilar. Xonadonga qut-baraka, fayz kiradi.

Har bir xalqda hazil mutoyiba, baxslashuv, aytishuv janrlari bo‘lib, o‘zbek xalqida bulardan tashqari askiya va qiziqchilik janri ham keng rivojlangan. O‘zbek xalqi askiya va qiziqchiligining boshqa hazil mutoyibalardan farqi shundaki, u bugungi kunda san’at darajasiga ko‘tarila olgan janrlardan biridir. Shu nuqtai nazardan xalq og‘zaki ijodi bo‘lgan milliy askiya va qiziqchilik san’atini keyingi avlodga yetkazish bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.07.2023 yildagi PQ-222-sonli “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik

san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori muhim ahamiyatga ega[1].

XX asrning boshlari va o‘rtalarida Yusufjon qiziq Shakarjonov, Dehqon Yuzboshi Shernazarov, Erka qori Karimov, Ijroqum buva, Tursun buva Aminov, G‘oyib ota Toshmatov, Jo‘raxon Sultonov, Abdulhay Maxsum Qozoqov, Mamajon Maxsum, Mamajon ota Madaminov, Saydali Jalilov, Amin buva, Rasul qori Mamadaliyev, Rahmatqul Yasharov, G‘ulomjon Ro‘ziboyev, Zaynobiddin va Madaminjon Yusupovlar, keyingi avlod vakillari Muxiddin Darveshev, Hasanboy Sultonov, Yo‘ldoshxon Nosirov, G‘iyosiddin Abdurahmonov, Ne’matjon Toshmatov singari mashxur askiyachi va qiziqchilar faoliyat ko‘rsatganlar.

Yusufjon qiziq Shakarjonov 1869 yilda Marg‘ilon shahrining Yoqubbek guzarida istiqomat qiluvchi Shokirjon kulol bilan chevar Tojibibi oilasida dunyoga keladi. Ha, otasining asl ismi Shokirjon bo‘lgan. U kishi xalq o‘rtasida so‘zga chechanligi, o‘zining shirin suhbati bilan dong taratishi natijasida ismi Shakarjonga aylanib ketgan.

Otasining vafotidan keyin (1876 yil) yetti yashar Yusufjon onasiga yordam berish, tirikchilikni o‘tkazish uchun choyxonalarda yugurdak bo‘lib xizmat qila boshlaydi. O‘z davrida choyxonalar hordiq chiqaradigan, dardlashadigan, suhbatlashadigan, hazil-mutoiba qiladigan jamoatchilik markazi vazifasini bajargan. O‘yin-kulgu, tomosha ko‘rsatiladigan, musiqa tinglaydigan joy, o‘ziga xos maskan bo‘lgan.

Tabiatan sho‘x, serzavq Yusufjonning dilida xuddi shu yerda san’at, kulgu va o‘yinga dastlabki havas paydo bo‘ladi. Bu havas kundan-kunga rivojlanib, uni chinakam san’at dargohiga yetaklab boradi. Sakkiz yoshidan boshlab Yusufjon choyxonalarda, gap-gashtaklarda latifalar aytib, askiyalarga qo‘shilib odamlarni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.07.23 yildagi PQ.-222-sonli “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

kuldiradagan, qush va hayvonlarning tovushlari va qiliqlariga taqlid qilib, raqsga tushib, ashula aytib kishilarga zavq bag‘ishlaydi va tez orada mitti qiziqchining dovrug‘i xalq orasiga tarqaladi[2].

Yusufjon qiziq Shakarjonov barakali umr ko‘radi. O‘zining mana shu barakali umri davomida uch xil tuzumni (xonlik davri, mustamlaka davri va sovet hokimiyati) ko‘rgan va sermahsul ijod yo‘lini bosib o‘tgan. Uning bolalik yillari, xususan dastlabki ijodiy qadamlari Qo‘qonning so‘ngi xoni Xudoyorxon (1862-1876) davrida kechadi. Xudoyorxon saroyida erkak va ayol qiziqchilar to‘dalari mavjud bo‘lib, erkaklar to‘dasiga Zokir eshon, ayollar to‘dasiga Iqlim dodhoh degan qiziqchilar rahbarlik qilganlar. Mazkur to‘dalar saroyda xizmat qilsalar-da, o‘z ijodlarining ijtimoiy mohiyati bilan tamoman xalqchil bo‘lgan. Shuning uchun ham xonlik yemirilishi bilanoq ular (qiziqchilar A.Q.) xalq orasiga singib ketganlar. Serg‘ayrat, chaqqon va qobiliyatli Yusufjon Zokir eshon to‘dasining nazaridan chetta qolmadi. 1880 yili choyxonalarning birida Yusufjon oshnalari Matholiq va Ortiqboy bilan qilgan qiziqchiligini ko‘rgan mashhur qiziqchi Sa’di maxsum ularni o‘ziga shogird qilib oladi.

1881-88 yillarda Yusufjon Zokir qiziq boshliq qo‘qonlik qiziqchilar to‘dasida bevosita Sa’di Maxsumdan ta’lim oladi. Sa’di Maxsum (1825-1899) asli marg‘ilonlik, Zokir eshon to‘dasidagi eng qobiliyatli va qiziqchilar an’analarini puxta bilgan san’atkor bo‘lgan. Buning ustiga unda murabbiy bo‘lish uchun zarur qunt va chidam, mehribonlik yaxshi shakllangan edi. Shu bois shogirdlar ko‘pincha unga topshirilgan. Shunday qilib, Sa’di Maxsum Farg‘ona qiziqlariga xos bo‘lgan usul va qoidalar asosida Yusufjonga ta’lim bera boshlaydi[3].

Ta’kidlaganimizdek, Sa’di maxsum – qiziqchi, askiyachi, Yusufjon qiziqning ustozi. 36 yil xon saroyida qiziqchilik qilgan. Xudoyorxonning

[2] Qarang: Qodirov M. Yusufjon qiziq ijodi. –Toshkent: 1969. –B. 4
[3] Qodirov M. Yusufjon qiziq. –Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti. 1991. –B.10

qiziqchisi Sa'di Maxsum Yusufjon bilib, ko'rib, yoqtirib qolib, o'z tarbiyasiga oladi. Yetti-sakkiz yil birga ijod qilishgan. To'ylarda o'ynadi, askiya qiladi, ba'zilarining ustidan kuladi, qiziqchilik qiladi. Uch xonni ko'rgan san'atkor. 80 yoshida vafot etgan. Shungayam mana 60 yil (1950 yillar) bo'lib qoldi.

Yusufjon ishlagan birinchi sirk Dobrjanskiy sirki bo'lib, Marg'ilonda birinchi marta chodir tikkan. U joyda Yusufjon masharabozlik, qiziqchilik qiladi. Tomoshabinlar olqishiga sazavor bo'ladi. Sa'di Maxsum Yusufjonni xaloyiq oldida o'ynash qoidalarini yaxshi o'rgatganligi sabab qo'rqmasdan har bir tomoshani yurakdan bajarar edi.

Qiziqchini tarbiyalashda ustozlar ikki xil usuldan foydalanishgan. Bir xil ustozlar o'z shogirdlarini birga olib yurib, ahyon-ahyonda ayrim kichik rollarni ishonib topshirsa-da, unga saboq bermagan, maxsus mashq qildirmagan, ba'zan qisqa tanishtiruv, ta'rif, maslahat, ogohlantiruv va ma'qllash bilan cheklangan. Shogird asosan o'z ustozi va malakali ijrochilarning qilgan harakatlari va ijrolarini kuzatish, sinchkovlik bilan o'rganish yo'lidan borgan.

Bir toifa ustozlar esa o'z shogirdlari bilan alohida vaqt ajratib ma'lum tartib va intizom asosida ish yuritgan. Sa'di Maxsum ana shunday ustoz qiziqchilar biri bo'lgan. U o'z shogirdlariga birinchi galda havjbop kishilarning holatlari, qiliqlarini kulgili qilib ko'rsatish, qush va hayvonlarning harakatlari, tovushlariga tahlid qilishni buyurgan. Shu asosda shogirdda kuzatuvchilik, kulgili xolat va harakatlarni ko'ra bilish, esda saqlab qolish, fikrlash, fantaziya qila olish va bo'rtirib gavdalantira bilish qobiliyati rivojlantirilgan. Shogird tahlidga chaqqon bo'lgandan keyin ayrim lirik va hajviy o'yinlarni o'rgatgan. Muqallid va o'yinga, harakat va mimikaga o'rgatish Sa'di Maxsum maktabining birinchi davrini tashkil etadi. Ikkinchi davri shogirdini badiiy so'zga chechan va hozirjavob bo'lishga, kulgili hikoyalar to'qib aytishga, askiyabozlikka o'rgatishdan boshlangan. Shogird ham harakatda, ham so'zda qoniqarli darajaga erishgach, komediya o'ynashga o'tgan.

"Millionlab odamlarning e'tiborida bo'lgan, madaniyat, adabiyot va san'at degan muqaddas dargohga qadam qo'ygan har bir ijodkor, hech shubhasiz, avvalo o'z xalqining qalbiga quloq solib, uning dardiga darmon bo'lishga intiladi"[4].

Yusufjon qiziq Shakarjonovdan sobiq Ittifoq davrida sozanda, hofizlar, raqs ustalari, askiya va qiziqchilarni to'plash, ansambllar tashkil etish va ularni uyushtirishga katta e'tibor berib keldi. U Farg'ona vodiysining atoqli xalq sozanda va xonandalarini yig'ish, rasmiy trupalarga jalb etishda Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan Muhiddin Qori Yoqubovga yaqindan yordam berganligi ham buning guvohidir. Askiyachi va qiziqchi sifatida Yusufjon qiziq Shakarjonovning o'zi hayotga faol aralashdi, xalq va yurt bilan hamnafas bo'ldi, o'z so'zi va kulgisi bilan kishilarning g'ayratiga g'ayrat, kuchiga kuch qo'shdi.

Yusufjon qiziq Shakarjonov san'ati shu qadar keng, badiiy saviya shu qadar baland ediki, na faqat xalq san'atchilari uchun, yangi san'at vakillari uchun ham ibrat bo'ldi. San'atkor kamtarlik, sipolik, halo-pokizalik, mehr-muruvat kabi insoniy fazilatlari bilan ko'plarga o'rnak bo'lgan. Hamma unga talpinar, uning suhbatida bo'lish, undan o'rganishga intilar edi. Yusufjon qiziq Shakarjonov o'zining san'atini va bilimini sir saqlamagan. Ayniqsa, yoshlarga o'z bilganlarini o'rgatishga, ular bilan baham ko'rishga harakat qilgan, chunki u juda sahiy va qo'li ochiq, odamoxun inson bo'lgan edi. Yusufjon qiziq Shakarjonov xalq san'atining bamisoli jonli qomusi bo'lgan edi. U bir hazina, tilsimot ediki, Hamza Hakimzoda Niyoziydan boshlab uni ochish, uni o'rganishga kirishildi. Bu ish ikki yo'nalishda olib borildi. Bir tomondan, yozuvchi va olimlar Yusufjon qiziq tilidan va uning ijrosida xalq og'zaki ijodi namunalarini yozib ola boshladilar. Yozuvchilardan Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Sobir Abdulla, Jalil Qodirov, olimlardan V.A.Uspenskiy, Ye.Ye.Ramanovskaya, A.L.Troiskaya,

[4] Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: O'zbekiston NMIU. 2018. 2-tom. –B. 222

M.Raxmonovlarning Yusufjon qiziqdan yozib olgan qiziqchiliklari, raqslari, kuy va qo‘shiqlari halq san’ati tarixi va nazariyasini o‘rganishda ishonchli manba bo‘lib qoldi. Xususan, Yusufjon qiziqning A.L.Troiskaya bilan hamkorligi samarali bo‘ldi. 1936, 1940, 1941 yillarda kechgan hamkorlik natijasida Qo‘qon qiziqchilari teatrining repertuarlari qog‘ozga tushdi, qiziqchilar maktabi va mahorati asoslari aniqlandi.

Mazkur risola yozishda bir qator olimlarning ilmiy monografiyalari va ilmiy-ommabop risolalari, maqolalaridan yetarlicha foydalandik. Jumladan, Cho‘lponning 1936 yil 6-sonida “Guliston” jurnalida chop etilgan “Qiziqlar” maqolasidan, Sharif Rizoning 1940 yili “Guliston” jurnalining № 4-sonida bosilgan “Xalq san’atkorlari” maqolasidan, san’atshunoslik fanlari doktori, professor Muhsin Qodirovning 1959 yilda “Sharq yulduzi” jurnalining 4-sonida bosilgan “Yusufjon qiziq” nomli maqolasidan, 1969 yilda chop etilgan “Yusufjon qiziq ijodi” hamda 1991 yilda nashrdan chiqqan “Yusufjon qiziq” risolasidan, 1960 yilda nashr qilingan To‘lqin Obidovning “Yusufjon qiziq” nomli kitobchasidan, shuningdek, 1973 yilda “Sovet O‘zbekistoni san’ati” jurnalida “Yusufjon qiziq sandig‘idan” degan sahifa ochilgan bo‘lib, ushbu sahifadagi Ustaning qiziq-qiziq hikoyalari, hangomalaridan yetarlicha foydalandik va ularni tartibga keltirdik. Shu bilan birga Yusufjon qiziq haqida yozilgan drama ham risoladan joy olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.07.23 yildagi PQ.-222-sonli "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

II. KITOBLAR, MONOGRAFIYALAR, ILMIY RISOLALAR:

2. Mamajonov S. Barhayot Hamza. –Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti. 1991. –B. 15

3. Mannopov S., Sherayev M. O'zbek xalqining askiya va qiziqchilik san'ati. –Farg'ona nashriyoti. 2020. – B. 91, 39-42

4. Obidov T. Yusufjon qiziq. –Toshkent: Monografiya. O'zadabiy nashr. 1960. –B. 60

5. Usmonov X. Yusufjon qiziq hangomalari. –Marg'ilon: 1998. –B. 4

6. Qodirov M. Yusufjon qiziq ijodi. –Toshkent: O'Zbekiston KP Markaziy Komitetining Birlashgan nashriyoti. 1969. –B. 4, 18, 30

7. Qodirov M. Yusufjon qiziq ijodi. –Toshkent: 1969. –B. Qodirov M. Yusufjon qiziq. –Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti. 1991. –B.10, 15, 17, 43, 57-58

JURNAL VA GAZETALAR:

1. Abdug'afforov A. "Suv quyish". "Mushtum" jurnalning 1971 yil № 6-son.

2. Abdullayeva Z.D. Cho'lponning yangi topilgan "Yana uylanaman" komediyasi haqida. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723

3. Nabi. O'zbek etnografik truppasining yozgi sayohati. "Qizil O'zbekiston" gazetasi. / 1927. 28 iyun, № 160 (783)

4. Cho'lpon, "Yer yuzi" gazetasi. 1927 yil, 27-may

5. "Qizil O'zbekiston" gazetasi. 1927-yil, 27 iyun